

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MILLIY TARIXGA YONDASHUVNING ISTIQLOL DAVRIDA O'RGANILISHI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: Djumayev123@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-1741-4007>

Annotatsiya.

Maqolada istiqlol davri o'zbek adabiyotida milliy tarixga yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, tarixiy roman va epopeyalarda Amir Temur hamda temuriylar davri obrazlarining badiiy-poetik talqini atroflicha o'rganiladi. Muhammad Ali, Nurali Qobul, Erkin Samandar kabi yozuvchilarning asarlarida tarixiy shaxslarning haqqoniy, ideallashtirilmagan va psixologik jihatdan chuqur tasvirlanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: istiqlol davri, milliy tarix, Amir Temur obrazi, tarixiy roman, epopeya, badiiy talqin, xronotop, psixologik tasvir, xalq dostonlari motivlari.

ИЗУЧЕНИЕ ПОДХОДА К НАЦИОНАЛЬНОЙ ИСТОРИИ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

Жумаев Элмурод Бекпулатович

Университет информационных технологий и менеджмента, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье подробно рассматриваются особенности подхода к национальной истории в узбекской литературе периода независимости, в частности, художественно-поэтическая интерпретация образов Амира Темура и эпохи Тимуридов в исторических романах и эпосах. В произведениях таких писателей, как Мухаммед Али, Нурали Кабул, Эркин Самандар, анализируется правдивое, неидеализированное и психологически глубокое изображение исторических личностей.

Ключевые слова: эпоха Независимости, национальная история, образ Амира Темура, исторический роман, эпоса, художественная интерпретация, хронотоп, психологический образ, мотивы народных былин.

STUDYING THE APPROACH TO NATIONAL HISTORY DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

University of Information Technology and Management, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The article examines in detail the approach to national history in Uzbek literature during the period of independence, particularly the artistic and poetic interpretation of Amir Temur and the Timurid era in historical novels and epics. The works of writers such as Muhammad Ali, Nurali Kabul, and Erkin Samandar analyze the truthful, non-idealized, and psychologically profound portrayal of historical figures.

Keywords: Independence era, national history, Amir Temur's image, historical novel, epic, artistic interpretation, chronotope, psychological image, motifs of folk epics.

Kirish. Istiqlol davri o'zbek romanchiligida Amir Temur siymosini tarixiy haqiqatga muvofiq va badiiy jihatdan mukammal talqin etish vazifasi Muhammad Ali, Bo'riboy Ahmedov hamda Nurali Qobul kabi adiblar tomonidan muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi. Xususan, Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi ushbu mavzuda yaratilgan dastlabki roman-epopeya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. To'rt shahzoda ismlari bilan nomlangan ushbu to'rt jildli asar 1993–2003-yillar oralig'ida, ya'ni o'n yil davomida yozib tugallangan. Asarning "Jahongir Mirzo" deb atalgan birinchi jildi sobiqshahzodaning Balx shahrida Movarounnahr davlatining hukmdori sifatida tan olinishi arafasidagi voqealarni qamrab oladi. Muallif tetralogiya doirasida Amir Temurning davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish yo'lidagi amaliy tadbirlari, u asos solgan qudratli mamlakatning ichki va tashqi siyosati, sobiqshahzoda oila a'zolari o'rtasidagi murakkab munosabatlar, shahzodalarining xatti-harakatlari hamda temuriylar malikalarining xarakteridagi nozik jihatlarni keng qamrovda badiiy tasvirlashga intilgan. Adib o'z asarida Amir Temurning turli tarixiy davrlarda va dunyoning turli mintaqalarida qo'lga kiritgan ulkan g'alabalariga uning yuksak aql-idroki hamda qat'iy tartib-intizomi asos bo'lganligini yorqin va ishonarli tarzda namoyon etgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiyotshunos Lobar Mardonovaning "Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasidagi obrazlarning badiiy poetik talqini" nomli dissertatsion tadqiqotida Amir Temur obrazining asardagi badiiy talqini masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi ushbu obrazning yaratilish prinsiplari haqida quyidagi muhim kuzatishlarni bayon etadi: "Adib sobiqshahzodani ideallashtirmaydi. Butun umri dahshatli

yo'qotishlar ichida kechgan sarkardaning dard-alamlari, iztiroblari haqqoniy tasvirlanadi. U muqarrar fojiasini anglagan holda katta maqsadlar yo'lida muhorabaga kirgani bilan ulug'vorlik kasb etsa, atrofini qurshaganlarning ruhiy olamini bilib ulgurmaganligi jihatidan o'zligini ham namoyon etadiki, u adabiy qahramongina emas, jonli odam, banda sifatida qabul qilinadi" [1:14]. Muallifning sohibqironning ruhiy-psixologik olamini chuqur ochib berishga qaratgan e'tibori asarning badiiy saviyasini sezilarli darajada yuksaltirgan va obrazning realistlik xususiyatlarini kuchaytirgan. So'nggi yillarda Amir Temur va temuriylar shahzodalari hayotiga oid tarixiy haqiqatlarni badiiy-adabiy jihatdan haqqoniy aks ettirish yo'nalishida Nurali Qobulning ijodiy izlanishlari samarali natijalar berdi. Yozuvchining "Temuriylar" tarixiy-badiiy epopeyasida sohibqironning shaxsiy faoliyati hamda uning avlodlari tarixiy jarayonlardagi o'zni keng miqyosda, chuqur tarixiy asoslarga tayanib tasvirlangan.

Mustaqillik davri o'zbek romanchiligida xonliklar zamonidagi tarixiy shaxslarning badiiy obrazlarini yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. Xususan, Erkin Samandarning "Tangri qudug'i" romanida Xiva xoni Arabmuhammadxonning hayot yo'li, hukmdor sifatidagi faoliyati hamda farzandlariga bo'lgan munosabati keng qamrovda qalamga olingan. Tarixan murakkab va ziddiyatli davrda hukmronlik qilgan Arabmuhammadxon ichki siyosiy kurashlar, shuningdek, farzandlari – Habash va Elbars sultonlarning dushmanligi va xiyonatlaridan jiddiy aziyat chekadi. U eng og'ir vaziyatlarda ham xiyonatkor farzandlarini kechirish uchun o'zida yetarli ma'naviy kuch topadi. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev "Kechadan bugunni istagan adib" nomli maqolasida Arabmuhammadxonning hukmdor sifatida farzandlarini jinoyatlari uchun jazolashiga otalik mehri to'sqinlik qilganligini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqotchining qayd etishicha, xonni fojening asoratli oqibatlaridan ko'ra, uning asosiy sabablari ko'proq qiziqtirgan, u o'g'illarining qilmishlari uchun o'zini aybdor deb hisoblagan. Muallifning fikricha: "U noshud va tadbirsiz ham, ko'ngli bo'sh ham emas. Lekin xon taqdirning har qanday sinoviga tayyor bo'lsa-da, o'z o'g'illarining yovuzliklariga qarshi turishga hozir emas. U o'g'illari isyonini bosish yo'llaridan ko'ra Habash bilan Elbarsni bunday qabohatga undagan omillarni topmoqqa urinadi. U bolalarining yovuzliklari uchun, avvalo, o'zini aybdor deb biladi" [2:158]. Umumiy holda aytganda, romanda hukmdor sifatida aybdor farzandlarini jazolashi lozim bo'lgan, biroq otalik mehri tufayli ularga shafqat ko'rsatishni samimiy istaydigan murakkab xon xarakteri yuksak mahorat bilan yaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jahon adabiyotida ma'lum bir jamiyat yoki alohida shaxs hayotini keng qamrovli va atroflicha badiiy tasvirlash maqsadida ko'p jildli romanlar turkumini yaratish an'anasi uzoq tarixiy ildizlarga ega. Bu an'ananing yorqin namoyondalaridan biri sifatida fransuz adibi Romen Rolan tomonidan yaratilgan "Jan Kristof" romanini keltirish mumkin. Bastakor Jan Kristof (prototipi – Lyudvig van Betxoven) hayotiga bag'ishlangan o'n jildidan iborat ushbu asarda asosiy qahramonning Germaniya va Fransiya hududlarida uzoq yillar davom etgan qizg'in ijodiy va ijtimoiy faoliyati batafsil va chuqur aks ettirilgan.

O'zbek adabiyotida esa Nurali Qobulning "Temuriylar" epopeya turkumiga mansub romanlarida Amir Temurning siyosiy kurash maydonidagi faoliyati, o'zi asos solgan markazlashgan kuchli davlatni adolat mezonlari asosida boshqarishi, fothlik siyosati, shahzodalarning o'z istiqboli yo'lidagi orzu-intilishlari hamda temuriy malikalarning murakkab siyosiy vaziyatlardagi xatti-harakatlari keng miqyosda va atroflicha tasvirlangan. Romanlarda tafsilotlarning boyligi rivoyaning tushunarli va izchil bo'lishini ta'minlash bilan birga, syujet mazmunining chuqurroq anglashilishiga keng imkoniyat yaratgan. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish jarayonida psixologik tasvirning dinamik prinsipiga asosiy e'tibor qaratgan. Ma'lumki, yagona turkumga mansub romanlar o'rtasida mazmuniy va g'oyaviy bog'liqliklar mavjud bo'lsa-da, ularning har biri o'zining o'ziga xos individual xususiyatlarini saqlab qoladi. Ayrim tomlarda jang manzaralari va siyosiy to'qnashuvlar tasviriga keng o'rin berilgan bo'lsa, boshqalarida qahramonlarning o'y-xayollari tadrijiy rivojiga oid psixologik tafsilotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich" romanida Amir Temurning bolalik yillari, murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda muhim qarorlar qabul qilish orqali mamlakat yaxlitligini saqlashga qodir shaxs sifatida o'z salohiyatini namoyon etishi, shuningdek, Movarounnahr va Xurosonda kuchli, markazlashgan davlat barpo etish jarayonlari keng qamrovda qalamga olingan. Yigirma besh romandan iborat epopeyaning ushbu ilk jildida Amir Temur shaxsining jahon tarixida chuqur iz qoldirishi tasodifiy hodisa mahsuli emasligi, balki bu shaxsning murakkab siyosiy davrda ko'plab mamlakatlarning hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsata olgan yirik siyosiy kuch ekanligini anglatish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

"Yeti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt" romanida esa Amir Temur siyosiy faoliyatining keyingi bosqichi batafsil yoritilgan. Mo'g'uliston va fors o'lkalarida qo'lga kiritilgan g'alabalar sohibqironning ulug' amir va foth sifatidagi shuhratining yuksalishidan darak bersa, Jahongir Mirzoning o'limi bilan bog'liq voqealar o'quvchining sohibqiron shaxsi haqidagi tasavvurlarini sezilarli darajada kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Sultonning so'nggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va To'xtamishxon" romanida Turon davlati bilan Oltin O'rda o'rtasidagi aloqalar, ikki hukmdorning Dashti Qipchoq hamda Shimoliy Osiyo hududlariga oid siyosiy qarashlari aks ettirilgan. Muallif To'xtamishxon xatti-harakatlarini tasvirlash jarayonida Amir Temurning do'stlik qo'lini cho'zgan kishilarga muruvvat ko'rsatishi, dushmanlik yo'lini tutgan kimsalarga esa shafqatsiz munosabatda bo'lishini yorqin namoyon etishga intilgan.

"Chingizxonning oltin taxti" romanida Amir Temur bilan jaloyiriylar hamda turk sultonlari o'rtasidagi murakkab siyosiy ziddiyatlar batafsil qalamga olingan bo'lsa, "Jon va shon talvasasi" asarida temuriylar davlatining Anqara jangidan so'ng Yevropa mamlakatlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari keng miqyosda aks ettirilgan. Epopeya strukturasida "Jahon mulkining sultoni yoxud foth Temur va Yildirim Boyazid" deb nomlangan roman alohida o'rin tutadi. Adib bir necha asrlardan buyon ko'plab ijodkorlar tomonidan qayta-qayta murojaat etilgan, yevropalik yozuvchilar tomonidan ham atroflicha talqin qilingan ushbu mavzuni yangicha yondashuvlar asosida badiiy aks ettirish vazifasiga yuksak mas'uliyat bilan qaraydi.

Adabiyotshunos Bahor To'rayeva "Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi"

dissertatsiyasida epik janrlarga xos bo'lgan epik zamonning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Yigirma besh romandan iborat, ikki yuz yildan ziyod muddat davom etgan voqealarni qamrab olgan "Temuriylar" epopeyasidagi epik zamonning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha: "Epik janrga mansub asarlarda epik zamon ko'p qatlamli, zich-tig'iz (o'nlab yillarni real zamonning sanoqli kunlariga sig'dirish) va murakkab bo'ladi. Badiiy zamon quyidagi kompozitsion usullar orqali namoyon bo'ladi: zamonning ortga qaytishi (retrospeksiya), kelajakka yo'nalganligi (prospeksiya) va sekinlashishi (retardatsiya) har qanday asar badiiy zamoni xarakterini, mohiyatini anglatadi" [3:16]. "Temuriylar" epopeyasi tarkibidagi romanlarda retrospektiv va prospektiv syujet imkoniyatlaridan o'rinli va mahorat bilan foydalanilgan. Muallif aks ettirilayotgan voqealarning yuzaga chiqishi uchun sabab bo'lgan omillarni o'quvchiga anglatish hamda rivoyaning tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida qahramonlar hayotida ro'y bergan voqealarni yodga oladi. "Chingizxonning oltin taxti", "Jon va shon talvasasi", "Tiriklik saodati" romanlarida yirik janglar arafasida, shuningdek, g'alabalardan so'ng mushohada qilishga alohida e'tibor qaratgan asosiy qahramonning o'tmishiga atroflicha nazar tashlangan. O'rta Sharq hududini zabt etayotgan Temurning Amir Husaynga belbog' hadya qilganini eslashi, keksayib qolgan Saroyulkxonimning yoshlik yillari haqida xayollarga berilishi retrospektiv syujet yaratish uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirgan.

Yozuvchi Usmonli turklar qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, ikki qit'ada ham katta shuhrat qozongan, o'z kuch-qudratining cho'qqisiga chiqqan temuriylar saltanati hayotini tasvirlash jarayonida bir necha yillardan so'ng ushbu davlatning tanazzul va parokandalikka duchor bo'lishini o'quvchiga eslatib o'tadi. Kelajakda ro'y beradigan voqealarning oldindan ma'lum qilinishi badiiy matnda prospektiv syujet yaratish borasida o'ziga xos yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Elmurod Jumayev "Mustaqillik davri o'zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili" dissertatsiyasida Nurali Qobulning tarixiy romanlaridagi individual uslub, bu asarlarning til xususiyatlari borasida muhim mulohazalarni ilgari surgan: "Nurali Qobul romanlarida xalqona ohanglar, xalq jonli so'zlashuviga xos ibora, maqol, hikmatli so'zlarning salmog'i sezilarli darajada baland. Ijodkor leksik qatlamning turli xil ko'rinishlaridan unumli foydalangan. Bu esa voqelikning hayotiylikni ta'minlash bilan birga asar tilini boyitgan... Bu milliy romanlarda ko'p planli mazmun, sertarmoq syujet, kompozitsion rang-baranglik, shaxsiy ixchamlikka intilish kabi jahon epik tajribasiga xos tasviriy vosita va usullarni qo'llash o'zlashtirilgan" [4:14]. Darhaqiqat, yozuvchi xalq tiliga xos bo'lgan serjilolikni asar matniga singdirish bilan birgalikda, xalq dostonlarida ko'p uchraydigan qahramonlik motivlarini ham romanlarga olib kiradi. "Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich" romanida malohidalarga qarshi kurashish uchun maydonga tushgan o'smir yoshidagi Temurning qahramonliklari Alpomish va Qorajonning harakatlarini yodga soladi. Temurning Bayonqulixon qo'shinidagi barcha sarkarda va pahlavonlarni yakkama-yakka kurashda mag'lub etishi Qorajonning o'z birodarlari bo'lgan qalmoqlarni yengishiga o'xshab ketadi.

Yosh Temurning o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan, islom dinini rad etib, botil e'tiqodni targ'ib qilmoqchi bo'lgan Nosir Xusravning (bunda shoir Nosir Xusrav nazarda tutilmagan) malohidalar qo'shinini mag'lubiyatga uchratishi voqeasi xalq dostonlaridagi ayrim epizodlar bilan yaqin o'xshashlik kasb etadi. Xususan, "Ravshan" dostoni qahramoni Ravshanning Zulxumorga uylanishi uchun boshqa dinga o'tishga da'vat etilishi, uning o'z e'tiqodini saqlab qolish yo'lida kurashga intilishi, shuningdek, Hasanxonning harakatlari malohidalar qo'shiniga qarshi kurashayotgan Temurning faoliyati bilan hamohangdir. Temur ham o'z dinini himoya qilish va iymonini saqlash maqsadida Ravshan va Hasanxon singari jangga kirishadi. Har ikki asarda asosiy qahramonlarning kurashi muvaffaqiyat bilan yakun topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mardonova L. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasidagi obrazlarning badiiy poetik talqini: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2022. – 24 b.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 408 b.
3. To'rayeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 23 b.
4. Jumayev E. Mustaqillik davri o'zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili (Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2023. – 23 b.